

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR VA ILMIY DARAJASINI OLCHOVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLCHOVCHII
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAUMIDOV ASILBEK SHUXRATJONOVICH

JIN MASHINASI ARRALI SILINDRI VALINING RESURSTEJAMKOR
KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-TEXNIK
YECHIMLARI

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robototexnika tizimlari

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI

Namangan – 2024

Doktorlik (PhD) dissertatsiya	Ushbu asarning umumiy mundarijasi
Оглавление диссертации	(PhD) диссертации
Contents of the dissertation	Dissertation abstract

Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich

Jin mashinasi arrali silindri valining resurstejanikor konstruksiyasini ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari 3

Мирзаумидов Асилбек Шухратжонович

Научно-технические решения по разработке ресурсосберегающей конструкции вала пильного цилиндра джин машины 27

Mirzaumidov Asilbek Shukhratjonovich

Scientific and technical solutions for the development of a resource-saving design for the saw cylinder shaft of a gin machine 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHII
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAUMIDOV ASILBEK SHUXRATJONOVICH

**JIN MASHINASI ARRALI SILINDRI VALINING RESURSTEJAMKOR
KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-TEXNIK
YECHIMLARI**

**05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/T457 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifaciga (www.nammti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ergashev Jamoliddin Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qayumov Juramirza Abdiramatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Turdaliyev Voxidjon Maxsudovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasulov Ro'zimurot Xasanovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023. T.66.01 raqamli ilmiy kengash asosida fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2024 y. «15» iyun soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahar, Kosonsoy, 7-uy. tel: (+99869) 225-10-07, faks: 228-76-75; e-mail: nei_info@edu.uz., Namangan muhandislik-texnologiya instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiyasi ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (289-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «30» may kuni tarqatildi.
(2024-yil «30» apreldagi. № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M.Markamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

B.T.Aliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

N.M.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mashinasozlikni takomillashtirishda, xususan energiya va resurstejamkor, yuqori tezlikda ishlaydigan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga qo'llash, sifatli mahsulot tayyorlaydigan mashina va mexanizmlarni yuqori samaradorlikka ega bo'lgan, avtomatlashgan turlarini yaratish, mashinalarning ekspluatatsion ishonchligini takomillashtirish, mahsulotlar assortimentini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Dunyo miqiyosida texnologik mashinalarning ishchi detallarini asosan yeyilish, zo'riqish, va texnologik jarayonga nisbatan yuqori massali resurslardan foydali hisobga muddatidan avval ishdan chiqishini bartaraf etish maqsadida mashina detallari ishchi qismlarini resurstejamkorligini 15-20 foizga kamaytirish orqali energiya va resurs tejash imkoniyati mavjudligini hisobga olsak"¹, shu bilan birga resurstejamkor mashina detallari va mexanizmlarni yangi konstruksiyalarini yaratish, ishchi organlarini mustahkamligini ta'minlash va hisoblash metodlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahon rivojlanish tendensiyasida, texnologik mashinalar ishchi organlarini yengillashtirilgan yangi konstruksiyasini yaratish, parametrlarini asoslash uchun strukturaviy, kinematik va dinamik analiz usullarini ishlab chiqish hamda mashinasozlik ishlab chiqarish jarayonlarini sifatli bajarilishini ta'minlaydigan texnika va texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda va ularni ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha keng miqiyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ushbu yo'nalishda, ayniqsa, vallarda egilishni, zo'riqishni, titrashni kamaytirish jumladan, paxtani dastlabki ishlash sanoatining turli texnologik mashinalarida ishlatiladigan yengil, resurstejamkor konstruksiyalarni yaratish, ularning texnologik ish jarayonini asoslash va hisoblash usullarini ishlab chiqish bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda mashinasozlikni rivojlantirish, texnologik mashina hamda jihozlarning resurs va energiyatejamkor turlarini yaratish bo'yicha chuqur nazariy va tajribaviy tadqiqotlar olib borishga, xususan, paxtaga dastlabki ishlov beradigan mashinalarning yuqori samarali va mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadigan yangi avlodlarini ishlab chiqish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" ko'rsatilgan «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish» bo'yicha vazifalar belgilangan². Ushbu vazifani bajarishda, paxta tozalash korxonalarida qo'llanilayotgan uzun, og'ir vallarning ish unumdorligini oshirish, yengil resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash hamda energiya sarfini kamaytirish muhim masalalardan hisoblanadi.

¹ www.eurasiancommission.org

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 28-noyabrda «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3408 son qarori, Vazirlar mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-sonli «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'ganilganlik darajasi. Texnologik mashina detallarning energiya va resurstejamkorligini, mashina ish unumdorligini va mustahkamligini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash masalalari bo'yicha chet ellik olimlar E.Whitney, S.Z.Hall, T.Elliot, S.E.Hughs, R.N.Rakoff, A.V.Stanley, R.G.Hardin, P.A.Funk ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ijobiy natijalarga erishgan.

Mamlakatimizda ko'plab olimlar, jumladan H.H.Usmonxo'jaev, G.I.Miroshnichenko, R.G.Mahkamov, P.N.Tyutin, R.SH.Rahmatqoriyev, A.Dj.Djuraev, B.G.Kodirov, B.M.Mardonov, X.T.Axmadxujayev, O.Maxsudov, R.M.Murodov, M.Abduvaxidov, J.S.Ergashev, M.T.Xojiev, R.Z.Burnashev, P.V.Korabelnikov, A.E.Lugachev, M.M.SHukurov, K.A.Karimov, R.I.Karimov, SH.P.Alimuxamedov, G'.SH.Zokirov, I.G.Shin, I.T.Maxsudov, M.Agzamov, D.Yakubov, A.Artukmedov, J.S.Ergashev, D.M.Muxammadiyev, S.Z.Yunusov, A.X.Umurzaqov, V.M.Turdaliev, N.M.Safarov va boshqa olimlar mashinaning ish unumini oshirish, ularni resurstejamkor qismlar bilan jihozlash va texnologik mashinalarga sarflanayotgan energiya miqdorini kamaytirish bo'yicha munosib hissalarini qo'shishgan.

Lekin, hozirga qadar chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan texnologik mashinalarning uzun, og'ir vallarini yengillashtirish usullarini yaratish, egilishlarini kamaytirish hamda arrali silindr valining dinamik xarakteristikalarini to'la ko'rib chiqilmagan, uning yengil resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Shu sababli texnologik mashinalar vallarining mustahkamligini ta'minlash orqali resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini hisoblash usullarini yaratish mashinasozlik va qator tarmoq sohalari rivojida muhim hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy ish davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida Namangan muhandislik-texnologiya institutida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar rejasi bilan o'zaro uzviy bog'langan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliy tadqiqotlar davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnologik mashinalarning og'ir va tez aylanuvchan vallarining egilishlarini kamaytirish, resurstejamkor, yengillashtirilgan, bo'ylama ichki kovak ochilgan, arrali silindr valini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jin mashinasining arrali silindrini texnologik jarayonini tahlil qilish, arrali silindr valining yengil resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish;

arrali silindr yuritish mexanizmlari mashina agregati dinamikasi masalasini, dvigatel rotorini va yengillashtirilgan arrali silindr burchak tezliklarining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash;

arrali silindr egilishidagi tebranishini analitik usulda Gamelton va Lagranjning II-tur tenglamalaridan foydalanib sonli yechimini olish. Unga asosan tavsiya qilingan yengillashtirilgan vali bo'lgan silindr konstruksiyasining egilishini kamaytiradigan parametrlarini aniqlash.

yengillashtirilgan valning egilishini val massasini, kesim inersiya momenti va tashqi yuklanishni inobatga olgan holda hisoblashning analitik usulini ishlab chiqish;

elektrotenzometrik usulda elektron o'lchagichlarni qo'llab, yengillashtirilgan arrali silindrning aylanish chastotasi, burovchi momenti va egilishi qonuniyatlarini aniqlash;

ko'p omilli tajribalar asosida amaldagi val o'rniga taklif etilayotgan ichki kovak valdan arrali silindr uchun foydalanishni asoslash va maqbul qiymatlarini aniqlash;

tajriba sinovlarini o'tkazish, uni ishlab chiqarishda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotning obyektini sifatida vallar, xususan 5DP-130 rusumli jin, mashinasi vali uning ishchi organlari va yuritish mexanizmlari qaralgan.

Tadqiqotning predmetini mustahkamlikka egilishning hisoblash natijalari, resurstejamkor konstruksiyalar, matematik modellar va tavsiya parametrlari kiradi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida vallarga tushayotgan yuklanishlar, egilish va titrash, tebranish va harakat qonunlarini aniqlashda oliy matematika, materiallar qarshiligi, nazariy va amaliy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, tebranishlar nazariyasi, mashinalar dinamikasi, ishchi qismlarning harakat rejimlarini asoslashda mashinasozlik va texnologik mashinalarni sinash, garmonik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arrali silindr valining harakat qonunlari uning geometriyasi va massasini inobatga olgan holda analitik usulda olingan radial tebranishlar o'zgarishining bog'lanishlari asosida burchak tezlik, tezlanish, hamda burovchi momentlarning o'zgarishi qonuniyatlari aniqlangan;

arrali silindr valini burilish burchagining maksimal qiymatlari, umumlashgan va yoyilgan kuchlarni hisobga olgan holda aniqlangan hamda chiziqsiz birklikka ega bo'lgan tayanchni inobatga olish usuli, jin mashinasi arrali silindri parametrlari konstruktiv xususiyatlari va texnologik jarayonlarni inobatga olgan holda asoslangan;

xomashyo valigidan kelayotgan tasodifiy qarshiliklarni hisobga olgan holda arrali silindr valining harakat qonunlari hamda burovchi moment va uni tebranish qamrovini texnologik qarshilikka bog'liqlik qonuniyatlari va val markazini tanlash usuli ishlab chiqilgan;

arrali silindrga mo'ljallangan amaldagi val o'rniga ichi kovak vallardan foydalanishda tayanchlarining reaksiyasi, titrash va ko'ndalang tebranishlarini kamayishi qonuniyatlari aniqlangan hamda valni siljish amplitudalarini hisoblash formulasi olingan;

tajribaviy usulda yengillashtirilgan ichi kovak valni jin mashinasida qo'llanilganda valning tebranish chastotasi, amplitudasi va burovchi momentni o'zgarsih qonuniyatlari tolani sifat ko'rsatkichlariga, elektr va resurs sarfiga bog'liqligi va tebranish oralig'ining chiziqsiz qonuniyada kamayishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta tozalash korxonalaridagi 5DP-130 jin mashinasi ishchi organi bo'lgan arrali silindr valining yengillashtirilgan konstruksiyasi parametrlari va harakat qonunlari aniqlangan;

arrali silindrga mo'ljallangan amaldagi val o'rniga ichi kovak vallardan foydalanishda mustahkamlik va bikrligni ta'minlangan holda egilishni kamayishi hamda ruxsat etilgan titrashga chidamliligi asoslanganligi va texnologik jarayonda yuqori sifatli tola ishlab chiqishni ta'minlangan holda ishlab chiqarishga joriy qilingan.

Tadqiqotlarning amaliy natijasi yaratilgan konstruksiyalar hamda tavsiyalarning ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan sinovlar natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnomalar, ularning ishlab chiqarishga joriy etilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, hisob-kitoblarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arrali silindrning tavsiya etilgan yengil resurstejamkor valini konstruksiyasini ishlab chiqilganda nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijasida arrali silindr valining harakatlarini ifodalovchi dinamik va matematik modellari olinganligi, masalalarni sonli yechimlari asosida harakat qonunlari va parametrlarini qiymatlari asoslanganligi, bog'lanish grafiklarini olinganligi, ishlash rejimlari, konstruktiv va dinamik parametrlarini aniqlanganligi bilan ilmiy ahamiyatini tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati valning ichi kovak qilib bajarilishi massani ko'proq kamaytirishga olib keldi, valning bikrligi saqlandi, resurstejamkor konstruksiyasi ishlab chiqilganligi va paxta tolasini zarur bo'lgan sifatda olishga imkon berishi hamda ish unumi ortishi, samaradorlikni yuqori bo'lishini ta'minlanganligi amaliy ahamiyatini tashkil qiladi. Shuningdek, paxta tozalash

mashinalari jumladan, 5DP-130 jin mashinasi valining nazariy asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jin mashinasi ishchi qismlariga sarf xarajatlar kamayishi va olinadigan iqtisodiy samaradorlikning yuqori ekani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnologik mashinalarning xususan 5DP-130 jin mashinasi valining takomillashtirilgan konstruksiyalarini va hisoblash metodlarini ishlab chiqish asosida:

Jin mashinasi arrali silindr valining konstruksiyasilariga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazining 3 ta ixtiroga patentlari olingan (1. Patent № IAP 06087 Jinning arrali silindri, 2. Patent № IAP 06325 Jinning arrali silindri, 3. № IAP 06790 Aylanuvchi valdagi tebranshlarni so'ndiruvchi tayanch) «Namangan to'qimachi klaster» MCHJ To'raqo'rg'on paxta tozalash korxonasida joriy etilgan («O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» uyushmasining 2022-yil 22-iyuldagi 02/22-438-son ma'lumotnomasi). Natijada paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash imkoni yaratilgan;

arrali silindr valining yengil resurstejamkor konstruksiyasini Namangan to'qimachi klaster» MCHJ To'raqo'rg'on paxta tozalash korxonasining 2022-yil 5-maydagi sinov, iqtisodiy samara va joriy etish dalolatnomalari olingan. («O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» uyushmasining 2022-yil 22-iyuldagi 02/22-438-son ma'lumotnomasi) natijada elektr energiya sarfi 14% kamayganligi, resurs tejalishi 71 kg ni tashkil etganligini ko'rsatdi. 5DP-130 jin mashinasi arralarining ishlash muddati 22% ga, kolosnik, arra va qisirmalarning ishlash muddati esa 2,2 baravarga, tolaning sifat ko'rsatkichini 1,1 % oshishiga erishilgan;

yengillashirilgan, resurstejamkor val konstruksiyasi Namangan viloyati To'raqo'rg'on paxta tozalash korxonasidagi 5DP-130 jin mashinasiga joriy etilganda kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 1 453 400 (bir milliard to'rt yuz ellik uch million to'rt yuz ming) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Namangan muhandislik-texnologiya instituti (NamMTI) "Texnologik mashina va jihozlar" kafedrasida va Turkiya davlatining "Karabuk" universiteti "Mexanika" kafedralarining kengaytirilgan yig'ilishlarida hamda 8 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilganligi.

Dissertasiya ishi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan 3 ta ixtiroga O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk markazining patentlari olingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 16 ta maqola, shu jumladan 8 tasi xorijiy 12 tasi respublika jumallarda va 3 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bobdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 190 betni tashkil etadi.

Muallif ilmiy maslahatchilar, XMA akademigi, t.f.d., professor A.Dj.Djurayev, t.f.d., professor J.S. Ergashev va t.f.d., professor S.Z. Yunusovlarga

dissertatsiya ishida olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishda qimmatli maslahat va yordamlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmetlari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprotatsiya natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.



Dissertatsiya ishining "**Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar manbalarini analitik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, jumladan jin mashinasi arrali silindri ishchi organlari konstruktiv xususiyatlari, jinlash zonasi ishchi elementlarning konstruktiv kamchiliklari berilgan. Hozirga qadar chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan texnologik mashinalarning uzun, og'ir vallarini yengillashtirish usullarini yaratish, egilishlarini kamaytirish hamda arrali silindr valining dinamik xarakteristikalari to'la ko'rib chiqilmagan, uning yengil resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Shu sababli texnologik mashinalar vallarining mustahkamligini ta'minlash orqali resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini hisoblash usullarini yaratish mashinasozlik va qator tarmoq sohalari rivojida muhim hisoblanadi.

Shuning uchun jin mashinasi arrali silindri valining yengil, resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish sohaning muhim ilmiy muammosi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**Jin mashinasi valini resurstejamkor konstruksiyalarini ishlab chiqish**" deb nomlangan ikkinchi bobida SDP-130 jin mashinasi valini yangi resurstejamkor konstruksiyalari ishlab chiqilgan hamda o'ziga xos tomonlari batafsil ko'rsatib berilgan. Arrali silindr valining (shlitsali) sirtidan tashqi bo'ylama ariqchalar ko'rinishida bajarilishi massani kamaytirishga olib keladi, ariqchalar hisobiga valning bikrligi saqlanadi, resurs tejaladi, ishonchlilik ortadi va paxta tolasini zarur bo'lgan sifatda olishga imkon beradi hamda valning ruxsat etilgan chegarada egilishini ta'minlaydi (1-rasm). Ushbu konstruksiya uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazi tomonidan ixtiro uchun patent olingan (№ IAP 06087).


Yangi modernizatsiya qilingan arrali silindr konstruksiyasining mavjud valning konstruksiyasidan afzalliklari quyidagilardan iborat. Modernizatsiya qilingan arrali jin mashinasi silindr valida ariqchalar yo'nish orqali massani 22 kg kamayganligi;

jin valining takomillashtirish natijasida arralarining ishlash muddati 2.2 barobar ortganligi bilan amaliy ahamiyatga ega.



1-rasm. Arrali silindr valini sirtidan bo'ylama ariqcha ochish usulidagi konstruksiyasi

Ma'lumki, vallar odatda buralish, egilish va zo'riqishga ishlaydi. Yuqoridagi 1-rasmdagi konstruksiyadan kelib chiqib, bo'ylama gorizontol ochilgan ariqchalarni burchak ostida tayyorlangan konstruksiyasi 2-rasmda keltirilgan. Ushbu konstruksiya uchun xam O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazi tomonidan ixtiro uchun patent olingan (№ IAP 06325). Ariqchalarni burchak ostida qilib tayyorlanishi buralishiga qarshi yo'nalgan bo'lib, dinamik kuchlanishlar paytida buralishga qarshi ishlashi tajribaviy tadqiqotlarda ma'lum bo'ldi.



2-rasm. Arrali silindr valini sirtidan burchak ostida bo'ylama ariqcha ochish usulidagi konstruksiyasi

Arrali silindr valining yetarli bo'lmagan bikrligi kolosniklar o'rtasidagi oraliqda ruxsat etilmagan qiyshayishlarga olib keladi, bu esa jinlash jarayoni uchun juda katta salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunda B.P.Jemochkin tomonidan ishlab chiqilgan ekvivalent diametrlar usulini qo'llab, arrali silindr vali egilish va burilish burchaklarini aniqlash bajarilgan.

B.P.Jemochkin usuli bo'yicha bikrligni aniqlashda val ikkita tayanchda yotgan pog'onali balka sifatida qaraladi (3a-rasm). Agar inersiya momenti J_1 ga ega doimiy kesimli balkani inersiya momenti $J_0 = \kappa J_1$ bo'lgan balka bilan almashtirilsa va bunda barcha yuklamalarni va reaksiyalarni martaga o'zgartirilsa, u holda taklif etilayotgan valni egri chizig'i birlamchi balka chizig'i bilan mos tushadi.

$$\kappa = \frac{J_0}{J_1}$$

Mazkur o'zgartirishdan foydalanamiz va arrali silindrning mavjud valini ichi kovak kesimli ekvivalent valga o'zgartiramiz

Arrali valni doimiy inersiya momenti J_1 , J_2 va J_3 ga ega alohida qismlarga kesib va kesik qirralariga ko'ndalang kuch Q va eguvchi momentlarni M qo'yib (3b-rasm), valning har bir pog'onasini unga qo'yilgan tashqi yuklamalar va ichki kuchlar bilan birga uzunligi bo'yicha doimiy inersiya momentiga ega valga o'zgartiramiz.

Har bir pog'ona bo'yicha keltirish koeffisientlari

$$\kappa_1 = \frac{J_0}{J_1}, \quad \kappa_2 = \frac{J_0}{J_2}, \quad \text{va} \quad \kappa_3 = \frac{J_0}{J_3}$$

Ekvivalent val inersiya momenti $J_0 = J_1$ inersiya momentiga teng deb qabul qilamiz, u holda

$$\kappa_1 = \frac{J_0}{J_1} = 1; \quad \kappa_2 = \frac{J_0}{J_2} < 1; \quad \kappa_3 = \frac{J_0}{J_3} > 1.$$


Eguvchi momentlar M_1 , M_2 , M_3 va ko'ndalang kuchlar Q_1 , Q_2 , Q_3 epyuralardan aniqlanadi yoki analitik hisoblab chiqiladi. Tashqi yuklamalar va ichki kuchlar bilan harakatlantiriladigan va uchastkalarining muvofiq keltirish koeffisientlariga κ_i ko'paytirilgan doimiy inersiya momenti J_0 ga ega val sxemasi (3v-rasm) ko'rsatilgan. 3.g-rasmda ekvivalent val keltirilgan bo'lib, unda κ_i martaga o'zgartirilgan berilgan yuklamalar, uchastkalar tegib turishi keltirilgan qo'shimcha yuklamalar va momentlar, teng farq qiluvchilar ΔQ_i va ΔM_i harakatlarib, ular har bir kesim uchun aniqlanadi. Mazkur usul bo'yicha aniqlangan val egilishlari

$$x = 168,4 \text{ sm}; \quad y = -0,0064 \text{ sm};$$

$$x = 87,4 \text{ sm}; \quad y = -0,0585 \text{ sm};$$

$$x = 40,5 \text{ sm}; \quad y = -0,039 \text{ sm};$$

$$x = 6,4 \text{ sm}; \quad y = -0,0065 \text{ sm}.$$




3-rasm. Arrali silindr valining statik bikrligini aniqlash uchun sxema

Qashilik momenti; $W_p = \frac{M_s^{\max}}{[\sigma]} = \frac{10000 \text{ kg} \cdot \text{sm}}{1500 \text{ kg} \cdot \text{sm}^2} = \frac{100}{15} = 6,6 \text{ sm}^3$


Qutb inersiya momenti $J_p = \frac{\pi d^4}{32} = 0,1 \cdot 10^4 = 1000 \text{ sm}^4$, $G = 8 \cdot 10^3 \text{ kg} / \text{sm}^2$.

$$\varphi = \frac{M_s^{\max} \cdot l}{G \cdot J_p} = \frac{10000 \cdot 300}{8 \cdot 10^3 \cdot 1000} = 3,7 \cdot 10^{-3} \text{ rad}$$

Buralishga ishlayotgan silindrik sterjen val vazifasini o'tasa, uni yengillashtirish maqsadida, egilishlarini kamaytirish va resursni tejash maqsadida ruxsat etilgan egilishini saqlagan xolda o'rta qismi o'yib tashlanadi; u holda val truba shakliga keladi ya'ni kovak val deyiladi. Kovak vallar (4-rasm) buralishga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini ko'p kamaytirmaydi, chunki asosiy kuchlanish ko'ndalang kesimning gardishida bo'lib, o'rta qismlarida ozayadi va markazida nolga teng bo'ladi.



4-rasm. Tavsiya etilayotgan kovak val konstruksiyasi



5-rasm. Taklif etilayotgan kovak val konstruksiyasi 3D modeli

Inersiya momentini topib olamiz. Kovak valning ko'ndalang kesimi uchun qutb inersiya momenti buralishdagi qarshilik momentini hisoblaymiz.

$$J_q^{xalqa} = \frac{\pi D_t^2}{32} (1 - c^4) = 0,1 \cdot 10^4 (1 - 0,7^4) = 760 \text{ sm}^4$$

$$W_p = \frac{\pi D_t^3}{16} - \frac{\pi D_i^3}{16}; \quad \text{qutb qarshilik moment}$$

Buralish burchagi φ ni aniqlangan.


$$\varphi = \frac{M_b^{\max} \cdot l}{J_q^{xalqa}} = \frac{10000 \cdot 300}{760 \cdot 8 \cdot 10^5} = \frac{3}{608} = 4,9 \cdot 10^{-3} \text{ rad}$$

hisob-kitob natijalarimizga ko'ra kovak val uchun buralish burchagi $\varphi = 4,9 \cdot 10^{-3} \text{ rad} = 0,28^\circ$ ni tashkil etadi.

Mashinasozlikda ruxsat etilgan buralish burchagi esa, $[\varphi] = 0,3^\circ$ bo'lishi kerak. Eng katta tangensial kuchlanish kesimning tashqi chetida hosil bo'ladi. Ya'ni quyidagicha topamiz.

$$\tau_{\max} = \frac{M_b}{W_q} = \frac{M_b}{0,1 \cdot d_t^3 (1 - c^4)} = 131,5 \frac{\text{kg}}{\text{sm}^2}$$

Tavsiya etayotgan tadqiqot doirasidagi kovak val esa buralish burchagi bo'yicha olgan natijalarimizga asoslanib ishlab chiqarishga yaroqli deb topildi.




6-rasm. Valga tushayotgan kuchlarni yoyilgan kuch xolati

Unga ta'sir etuvchi reaksiya kuchlarini aniqlaymiz va Statik muvozanat tenglamalarini tuzamiz.

$$\begin{aligned} \sum F_y &= -q \cdot 3M + Y_A + Y_B = 0; \\ \sum M_B &= q \cdot 3M \cdot 1,5M - Y_A \cdot 3M = 0. \end{aligned}$$

Tavsiya etayotgan asosiy kesim yuzasi kovak bo'lgan val uchun

$$l = 3\text{m}, q = 0.88 \text{ kN/m}$$



7-rasm. Tavsiya etilayotgan kovak valga tushayotgan kuchlarni yoyilgan kuch xolati


Statik muvozanat tenglamalarini tuzamiz.

$$\sum F_y = -q \cdot 3\text{m} + Y_A + Y_B = 0;$$


$$\sum M_B = q \cdot 3\text{m} \cdot 1.5\text{m} - Y_A \cdot 3\text{m} = 0.$$

Statik tenglamalarni yechish quyidagi reaksiya qiymatlarini beradi:


$$Y_A = 1.32 \text{ kN}; Y_B = 1.32 \text{ kN}.$$



8-rasm. Tavsiya etilayotgan ichi kovak val uchun reaksiya kuchlarini yo'nalishi



9-rasm. Kovak val uchun kesuvchi kuch epyurasi



10-rasm. Kovak val uchun eguvchi moment epyurasi

Umumiy xolatda quyidagi shart bajarilishi kerak ya'ni ($0 \leq z_1 \leq 3\text{m}$), $Q_y = Y_A - q \cdot z_1$;

$$z_1 = 0; Q_y = 1.32 \text{ kN}, z_1 = 3\text{m}; Q_y = -1.32 \text{ kN}, M_x = Y_A \cdot z_1 - q \cdot z_1^2/2; \text{ bunda}$$

$$z_1 = 0; M_x = 0. z_1 = 1.5\text{m}; M_x = 0.99 \text{ kN} \cdot \text{m}. z_1 = 3\text{m}; M_x = 0.$$

Vallarni aniq balkalar misolida olgan natijamiz shuni ko'rsatadiki, tadqiqot doirasidagi tavsiya etayotgan ichi kovak val ta'sir etayotgan kuchlarga nisbatan chidamli va ta'sir etayotgan kuchlar ostida texnologik jarayonda ishlash imkoniyatiga ega.

Kesimning tashqi radiusini R , ichki radiusini r desak (10-rasm), I_p ni aniqlovchi integral quyidagicha yoziladi.


$$I_p = 2\pi \int_r^R \rho^3 d\rho = \frac{\pi}{2} (R^4 - r^4) \quad (1)$$

$$I_p = \frac{\pi}{32} (D^4 - d^4) \approx 0.1 (D^4 - d^4)$$

bundan qarshilik moment quyidagi ifodaga teng bo'ladi;

$$W_p = \frac{I_p}{\rho_{\max}} = \frac{\pi(R^4 - r^4)}{2R} = \frac{\pi(D^4 - d^4)}{16D} \quad (2)$$

Nazariy izlanishlarda arrali jin ikki massali mashina agregat sifatida qaraldi (11-rasm). Mashina agregati dinamikasi yechishda, arrali silindr, elektr yuritgich rotor harakati o'rganildi.




11-rasm. Ikki massali mashina agregatini hisob sxemasi

11-rasmda keltirilgan hisob sxemasi bo'yicha ma'lumki, elektr yuritgich rotor va arrali silindr aylanma harakat qiladi, shu sababli 2 ta umumlashgan koordinatani belgilash mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mashina agregatining harakatini ifodalovchi differensial tenglamalar sistemasini quyidagicha hosil qilinadi.

$$J_g \ddot{\phi}_g = A_0 + B\dot{\phi}_g - c(\phi_g - U_{12}\phi_y) - b(\dot{\phi}_g - U_{12}\dot{\phi}_y)$$

$$J_y \ddot{\phi}_y = U_{12}c(\phi_g - U_{12}\phi_y) + U_{12}b(\dot{\phi}_g - U_{12}\dot{\phi}_y) - M_c \pm \partial M_c$$


bunda J_g, J_y, ϕ_g, ϕ_y - dvigatel va arrali silindr inersiya momentlari hamda burchak siljishlari; b, c - muftaning bikrlilik va dissipativ koeffitsientlari; A_0, B - dvigatelning parametrlari; U_{12} - uzatish funksiyasi. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida differensial tenglamalarni sonli yechimini olish uchun MathCAD dasturidan fooydalanildi. Olingan differensial tenglamalarni sonli yechimi asosida dvigatel va yengillashtirilgan arrali silindrning burchak tezliklarini o'zgarish qonuniyatlari olindi.



12-rasm. Dvigatel va yengillashtirilgan arrali silindrning burchak tezliklarini o'zgarish qonuniyatlari

Rezonans sodir bo'lmasligi uchun vallarning mazkur sharoitdagi aylanish tezligi qiymati aylanishlar chastotasining kritik qiymatiga teng bo'lib qolmasligi kerak. Shuningdek, nazarda tutish kerakki, aylanish chastotasi kritik qiymatga

yetgan vallar to'satdan sinib ketmaydi. Shu sababli, talab qilingan xollarda vallarning haqiqiy aylanish chastotasi kritik qiymatidan katta bo'lishi ham mumkin.



13-rasm. Jin mashinasi arrali vali aylanishining kritik tezligini aniqlash bo'yicha keltirilgan grafik

1-jadval

№	Inersiya moment, J	Eguvchi moment, M	M/J	Soxta yuklanish uchastkasi	Soxta yuklanish tushayotgan uchastka yuzi
	sm ⁴	kg/sm	kg/sm ³		kg/sm ²
I	4,8	340	7,6	A	22,8
	55,7		6,1		
II	55,7	600	10,7	B	37,8
	146		4,1	C	81
	146		8,55	D	302
IV	146	2200	15	E	430
V	146	2700	18,5	F	475
VI	146	2700	18,5	K	445
VII	146	2350	16,1	L	330
VIII	146	1400	9,6	M	97
IX	146	810	5,5	N	56
	55,7		4,3	O	60,2
X	55,7	605	10,7	P	27,7
	4,8		13,4	R	61,6
XI	4,8	300	6,7		
XII	4,8	251	4,45		
	30,7		6,5		

№	Salqilik ordinatasi y (sm)		Val uchastkasining og'irligi (kg)	Ko'paytma	
	Chizma bo'yicha (sm)	Masshtabda (sm)		$G \cdot y$	$G \cdot y^2$
1.	2.	3.	4.	5.	6.
1.	0,4	$18,6 \cdot 10^{-4}$	1,2	22,3	$415 \cdot 10^{-8}$
2.	0,9	$42 \cdot 10^{-4}$	3,15	$132 \cdot 10^{-4}$	$5550 \cdot 10^{-8}$
3.	2,5	$116 \cdot 10^{-4}$	18	$2090 \cdot 10^{-4}$	$4985000 \cdot 10^{-8}$
4.	4,7	$218 \cdot 10^{-4}$	18	$3920 \cdot 10^{-4}$	
5.	5,9	$274 \cdot 10^{-4}$	18	$4940 \cdot 10^{-4}$	
6.	6,0	$280 \cdot 10^{-4}$	18	$5040 \cdot 10^{-4}$	
7.	4,7	$218 \cdot 10^{-4}$	18	$3920 \cdot 10^{-4}$	
8.	2,6	$120 \cdot 10^{-4}$	18	$2160 \cdot 10^{-4}$	$6780 \cdot 10^{-8}$
9.	1,0	$46,5 \cdot 10^{-4}$	3,15	$146 \cdot 10^{-4}$	
10.	0	$0 \cdot 10^{-4}$	2,04	$0 \cdot 10^{-4}$	$8900 \cdot 10^{-8}$
11.	1,5	$69,5 \cdot 10^{-4}$	1,85	$128 \cdot 10^{-4}$	$8900 \cdot 10^{-8}$
12.	3,2	$149 \cdot 10^{-4}$	14,0	$2082 \cdot 10^{-4}$	$311000 \cdot 10^{-8}$

Dissertatsiyaning "Valning yaxlit kesimini kovak valga almashtirishning nazariy asoslari" deb nomlangan uchinchi bobida tavsiya etilgan kovak valga o'tilishni asosiy sabablari, undagi ko'ndalang tebranishlar tadqiqi, o'q bo'ylab yo'nalgan kuchning valning kritik aylanishlar soniga ta'siri, xususiy ko'ndalang tebranishlarning yuqori chastotalari, buralishdagi tebranishlari va buralishga hisoblash xamda tavsiya etilayotgan val mustahkamligining zamonaviy kompyuter dasturlaridagi simulyatsiyasi keltirilgan.

Yaxlit valning statik mustahkamligini tekshirish shuni ko'rsatdiki, asosiy kesim yuzasi to'la bo'lgan valning xavfli kesimining mustahkamlik zahira koeffitsienti $n = 9,6$ ga teng bo'lib, bu ruxsat etilgan qiymatdan ($[n] = 1,5 + 3,0$) bir necha marta yuqoridir. Juda katta zahira koeffitsienti yaxlit valni quvur kesimli valga almashtirish imkonini beradi.


Shuni ta'kidlash joizki, ichki diametri $d_{ich} = 70 \text{ mm}$ ga teng bo'lgan kovak valda mustahkamlik zahirasi koeffitsienti ko'p ham pasaymaydi va $n = 5,4$ ni, tashkil qiladi. Yaxlit valni quvursimon bilan almashtirilishi valni yengillashtirishga va har bir valda $d_{ich} = 70 \text{ mm}$ bo'lganda 71 kg metallning (po'latning) tejalishiga olib keladi.

Aylanuvchi massalar (arralar, arralararo qistirmalar, gaykalar, shaybalar va yarim muftalar) inersiyalarga nisbatan aylanuvchi valning inersiya momentini hisobga olmasdan, tebranuvchi tizimning kinetik va potensial energiyalari quyidagi ko'rinishga ega.


$$T = \frac{1}{2} (\theta_1 \varphi_1^2 + \theta_2 \varphi_2^2 + \dots + \theta_5 \varphi_5^2) \quad (3)$$

$$P = \frac{1}{2} [K_1 (\varphi_1 - \varphi_2)^2 + K_2 (\varphi_2 - \varphi_3)^2 + \dots + K_4 (\varphi_4 - \varphi_5)^2]$$

Shuningdek, arrali silindring texnologik jarayonda bir maromda bo'lishiga erishishni ta'minlash usullari xam o'rganildi. (14 va 5-rasmlar). Nazariy izlanishlarda arrali silindring texnologik ko'rsatkichlariga chigitli paxtadan tola ajratish jarayonida hosil bo'ladigan qarshilik momentlar ko'rinishida inobatga olindi.



14-rasm. Arrali silindr burchak tezligini o'zgarishi qamrovi va burchak tezligining notekislik koeffitsientlarini ish unumiga bog'liqlik grafiklari



15-rasm. Arrali silindr burchak tezligining notekislik koeffitsientini o'zgarishini inersiya momentiga bog'liqlik grafiklari

Kovak bo'lgan yengillashtirilgan arrali silindr valni ishlab chiqarishda qo'llanilganda quyidagi parametrlar tavsiya etiladi, ya'ni: $\ddot{\varphi}_y \leq (1,8 \div 2,1) \cdot 10^{-2} \text{ c}^{-2}$; $J_y \leq (1,2 \div 1,5) \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. Shundagina tolani sifat ko'rsatkichlari yuqori va undagi chiqindilar yig'indisi kam bo'ladi. 14-rasmdagi grafiklardan ko'rib turibdiki, ish unumini ya'ni yuklanishni ortishi bilan burchak tezlik tebranishi ham ortadi, lekin inersiya momentini ortishi bilan arrali silindr burchak tezligining notekislik koeffitsientini kamayar ekan. (15-rasm).

Kompyuter dasturlarida simulyatsiya orqali hisoblash odatda qisman differentsial tenglamalarni yechishning raqamli usuliga asoslanadi va amaliy mexanika masalalarini yechishda yuzaga keladigan integral tenglamalarni - chekli elementlar usulidan foydalanib, har qanday murakkablik materiallarning qismlarini tekshirishimiz mumkin. Tadqiqot doirasidagi kovak valni egilishdagi kuchlanishlarni kompyuterda tadqiq qilish muammosi tashqi yuk ta'sirida val qismlarni tahlil qilishda kuchlanish holatini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun, valning mustahkamligini tadqiq qilish uchun eng mos dasturiy paketlardan foydalanish kerak: Tadqiqot davomida Ansys paketidan foydalanildi.


Dinamik modellashtirish natijalariga ko'ra val qismlarining kuchlanish deformatsiya holatini hisoblab chiqadi. Bunda tadqiqotchiga tez va aniq, rangli, qismning butun hajmi uchun mavjud kuchlanish va deformatsiyalar, ularning turli xil yuklar ostida, shuningdek, o'zaro ta'sirlar paytida rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi.

Tavsiya etilayotgan kovak valning arrali silindr xolatidagi konstruksiyasini (paket) yig'ilgan xolatini qurib olindi (16-rasm) va quyidagi tizim parametrlari kiritildi:

Hisoblashda quyidagi aniq ma'lumotlaridan foydalanilgan.

$F = 3125 \text{ N}$; $M = 1000 \text{ Nm}$; $F_{m} = g(m_1 + m_2 + m_3)$; $m_1 = 92 \text{ kg}$; $m_2 = 32 \text{ kg}$; $m_3 = 74 \text{ kg}$; $F_m = 1943 \text{ N}$; Ichi kovak val: po'lat 40XN, $E = 2 \cdot 10^{11} \text{ N/m}^2$; $\mu = 0.3$; $\rho = 7850 \text{ kg/m}^3$.

Jun arrali silindri valining matematik modelini yechishda geometrik parametrlari o'zgartirildi.



16-rasm. Tavsiya etilayotgan val konstruksiyasini yelkalariga ta'sir etayotgan burovchi momentlar holati

Komyuter dasturidagi tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, tavsiya etilayotgan valning texnologik jarayonda kuchlanishi $176 \cdot 10^6 \text{ N/mm}^2$ dan $103 \cdot 10^6 \text{ N/mm}^2$ ga pasayadi.

Val ichki diametrlarini va material turini o'zgartirib, birlashtirilgan tayanchda paydo bo'ladigan kuchlanishlariga ta'sirini aniqlash mumkin.

Dissertatsiyaning «Yengillashtirilgan arrali silindr validagi moment, tebranish chastotasi va amplitudasini tajribaviy usulda tadqiq etish» deb nomlangan to'rtinchi bobida tajribaviy tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, tadqiqotlarning o'tkazish usullari, yengillashtirilgan arrali silindr validagi burovchi moment va egilishning amplituda qiymatlari qonuniyatlari va tadqiqotlardan olingan natijalarni qayta ishlab tahlil etish keltirilgan.

Tarivoklashda xatolikni kam bo'lishini inobatga olgan holda, yelkasi sifatida ishlatilgan richak soat strelkasi bo'yicha va soat strelkasiga teskari yo'nalishlarda ham amalga oshirildi.




a)

b)

a – valga tenzodatchikni tokasyomnikga o‘rnatilgan xolati;


b – valni bir uchiga yelkani (richak) o‘rnatish

17 – rasm. Valdagi burovchi momentni torirovkalash (sozlash) jarayoni ko‘rinishi




18-rasm. Burovchi momentning tarirovkalash grafigi

Tajribaviy tadqiqotlarda arrali jin valining egiluvchan tebranishlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilayotgan yangi konstruksiyadagi arrali jin valining massani kamayishi hisobiga valning egiluvchan tebranishlarini sezilarli ravishda kamaytirdi. Shuning uchun ishlab chiqarish sharoitida kovakli valdagi titrash va egilishni o‘lchash (19-rasm) tajribaviy tadqiqotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Eksperimental olingan ossillogrammalarga ishlov berish asosida jin umumdorligining oshirilishidan arrali jin valining egiluvchan tebranishlari amplitudasining bog‘liqlik grafiqlari qurildi.




1-kovakli val sirtidagi qistirma, 2-tutkich (tolkatel), 3- elektroshtangensirkul, 4-prujina, 5 va 2-tutkich (tolkatel), 6- elektroshtangensirkuldan kelgan signalni uzatish kabeli.


19-rasm. Ishlab chiqarish sharoitida kovakli valdagi titrash va egilishni o‘lchash jarayoni




a)



b)



v)



d)

1, 2 va 3 – mos ravishda valning egilishdagi mustahkamlik chegarasi 3400, 3600 va 4200 kg/sm², a) mavjud; b) valning ichki diametri 65 mm; v) valning ichki diametri 70 mm; d) valning ichki diametri 75 mm;

20-rasm. Arrali silindr validagi vertikal egilish amplitudasini valning egilishdagi mustahkamlik chegarasi va valning diametrlariga bog'liqligi

Har qanday texnologik jarayonni maqbullashtirishda, shu jarayonni chuqur o'rganish va ta'liuqli parametrlarni to'g'ri tanlashni taqozo etadi. Shuningdek, har bir o'tkaziladigan tajriba reja asosida tartib bo'yicha o'tkazildi.

Har bir tajribani o'tkazishga o'rtacha 1,5 soat vaqt ajratildi. O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar sonini kamaytirish maqsadida eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanildi. Bunda asosan mashinani samarador ishlashi va undagi detallarni ruxsat etilgan darajada resurslarini tejalishi bilan ta'sir etuvchi omillar tanlab olindi.

Ta'sir etuvchi, ya'ni kiruvchi omillar kodlashtirib olindi:

X₁ – Paxtani qayta ishlash hajmi, kg/soat;

X₂ – Valning ichki diametri, mm;

X₃ – Po'latning egilishdagi mustahkamlik chegarasi, kg/sm².


